

“Kimyogarlar kuni” kasb bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz ishchi-xodimlar!



Farg'onaazot
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz

fargonaazot.uz

info@azot.uz

www.azot.uz

AO Farg'onaazot

t.mefargona_azot

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

5-son (1717)
2023-yil,
29-MAY.



**ASSALOMU ALAYKUM,
HURMATLI
HAMKASABALAR,
AZIZ DO'STLAR!**

Mana shu quvonchli lahzalarda Siz, azizlarni, ko'p millatli ishchi-xodimlarimizni, “Kimyogarlar kuni” kasb bayramimiz bilan chin qalbdan muborakbod etaman!

Avvalambor, Siz, qimmatli xodimlarimizga, mamlakatimiz kimyo sanoatini yanada rivojlantirishdagi faoliyatingizda hamda yangidan-yangi kimyo korxonalarini barpo etilishida erishilayotgan barcha yutuqlardagi munosib hissangiz uchun minnatdorchilik bildirmoqchiman. Sizlarning mehnatlaringiz bilan biz ulkan yutuqlarga erishdik. Mahsulotlarimiz jahon bozori rastalarini bezamoqda. Xaridorgirliги ortmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida katta talab bilan sotilmoqda.

Shu o'rinda, davlatimizda gigant korxonalardan biriga aylangan “Farg'onaazot” aksiyadorlik jamiyati o'tgan yil mobaynida Konsentrlanmagan azot kislotasi sexida 36,105 mlrd. so'mlik qo'shimcha tovar mahsulot, Xlorat magniy defoliantlari sexida kunlik ishlab chiqarish hajmi 43 dan 52 tonnaga yetkazilib, yillik 16,827 mlrd. so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilishga erishildi. 1,856 mlrd. so'mlik xomashyo xarajatlari iqtisod qilini, tabiiy gaz, bug' va elektr energiyalarini sezilarli darajada tejashga erishildi. Qop ishlab chiqarish sexida 3,5 mlrd. so'mlik xarajatlari maqbullashtirilganligini g'urur bilan aytib o'tmoqchiman.

Shuningdek, 2023-yilda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini bajarish, quvvatlarini oshirish va sexlarini barqaror ishlashini ta'minlash va mahsulot tan-narxini, energoresurslar iste'molini qisqartirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, buning natijasida Ammiak-3 sexida 12 mln. m³ tabiiy gaz tejilishi, bir tonna ammiak ishlab chiqarish uchun tabiiy gaz sarf me'yorini 25,4 m³ tushishi, kunlik ishlab chiqarish quvvatini 1450 tonnadan 1550 tonnaga oshirilishi va ammiak ishlab chiqarish agregatini bir maromda muntazam ishlashini ta'minlashga erishish kutilmoqda.

Karbamid sexida elektr energiya sarfini qisqartirish, sexning bir maromda ishlashini ta'minlash, kunlik ishlab chiqarish hajmini 1280 tonnadan 1350 tonnagacha oshirish va 1 tonna tayyor mahsulot uchun ammiak sarf me'yorini 0,6 tonnadan 0,595 tonnagacha tushirish kutilmoqda.

Konsentrlanmagan azot kislotasi sexida kunlik konsentrlanmagan azot kislotasi ishlab chiqarish quvvatini 13,54 tonnaga oshirishga, platina guruhiga mansub katalizatorni yo'qotilishini oldini olish hisobig yillik 600 ming AQSH dollari iqtisod qilish va yillik qo'shimcha 4455 tonna konsentrlanmagan kislotasi ishlab chiqarishga erishish kutilmoqda. Bu albatta bizning katta yutuqlarimizdir.

QADRLI KIMYOGARLAR!

Bayram munosabati bilan yana bir bor tabriklagan holda, Siz va oila a'zolaringizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadoningizga tinchlik-xotirjamlik, to'kinlik va ishlaringizga yutuq va omadlar tilab qolaman! Kimyosanoatimiz yanada rivoj-lanaversin!

Dilshod MANNONOV,
“Farg'onaazot” aksiyadorlik jamiyati
boshqaruvi raisi.

“KIMYOGARLAR KUNI” – TANTANALI RAVISHDA NISHONLANDI

**Kimyogarlarning eng sevimli bayrami bo'lmish
“Kimyogarlar kuni” jamiyatimiz xodimlari bilan
birgalikda ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi.**

Bayram Farg'ona shahrida joylashgan “Sarbon” to'yxonasida o'tkazilib, unga 400 ga yaqin xodimlar taklif etildi. Bayram dasturxonini yozildi. O'yin-kulgular, raqslar ijro etildi.

Kechani jamiyat boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov o'zining nutqi bilan ochib berar ekan, barchani kasb bayrami bilan tabriklab, xodimlarga kimyo sanoatiga, korxonamiz rivojiga qo'shayotgan hissasi uchun o'z minnatdorchiligini bildirib o'tdi. Shu o'rinda, jamiyatimiz oxirgi yillarda mahsulotlarimiz jahon bozori rastalarini bezayotganligini, xaridorgirliги ortayotganini va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida katta talab bilan sotilayotganligini g'urur bilan aytib o'tdi.

“Indorama invest mets” korxonasi bosh mutaxassisi Vivek Arora boshqaruvi raisining gaplarini ma'qullagan holda mazkur yilda bu bayramni “Farg'onaazot” AJ bilan birga nishonlayotganligidan bag'oyat hursand ekanligini ta'kidlab o'tdi.

So'ng, 15 nafar uzoq yillardan beri

korxonada faoliyat ko'rsatib, o'zining fidokorona mehnatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan ishchi-xodimlarimiz “O'zbekimiyosanoat” AJ tomonidan pul mablag'i, qimmatbaho sovg'alari va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.

Taqdirlash nihoyasiga yetgach jamiyat xodimlari uchun viloyatimiz honadalaridan Sarvarbek Haydarov, “Ansor” guruhi, “Davir” guruhlari qo'shiqlar kuyladilar, “Qir gullari” ansambli esa o'zining chiroyli raqslari bilan mehmonlarni shod etdilar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan honanda Abdulhay Karimovning qo'shiqlari esa barchaga manzur bo'ldi. Havaskor skripkachi Qosim Rasulov kuylari esa dillarga oro berdi. Boshlovchi Nilufar Qosimova va Muhiddin Aktamovlar bayram kechasini qizg'in olib bordilar.

Eslatib o'tamiz, korxona ma'muriyati tomonidan barcha korxona ishchi-xodimlari uchun bayram munosabati bilan mukofot pullari taqdim etildi.

E'zozxon
ABDULLAYEVA.





“ENG FAOL YOSH KITOBXON-2023”

Kitob bu – maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga bo'lgan munosabatidan yaqqol anglash mumkin. Yosh xodimlarni kitobxonlik darajasini, kitobga bo'lgan muhabbatini yanada oshirish maqsadida jamiyatimizning yoshlari o'rtasida "Eng faol yosh kitobxon-2023" ko'rik-tanlovi tashkillandi.

Tanlovni jamiyat boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov ochib berdi va ishtirokchilarga omad tiladi. Ko'rik-tanlovni shaffof tarzda o'tkazish uchun Viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi bosh mutaxassisi Doniyor Akbarov, Farg'ona viloyati Ahmad al-Farg'oniynomidagi axborot kutubxona markazi bosh kutubxonachilari Nodiraxon Qoraboyeva va Mohidixon Uzoqovlar taklif etildi.

7 nafar xodimlar ishtirokida o'tgan tanlov 3 bosqichda bo'lib o'tdi. Tanlovda O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin", Abu

Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Efram Sevelaning "To'xtating samolyotni tushib qolaman", Javlon Jovliyevning "Qo'rqma", Asqad Muxtorning "Chinor", O'lmas Umarbekovning "Urush farzandi", Zahiriddin Mansurning "Toshni teshgan tomchilar", Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyalar to'plami va O'tkir Hoshimovning "Ikki karra ikki besh" qissa va hikoyalar to'plami kitoblarini o'qish belgilangan edi. Tanlovda ishtirokchilarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan kitoblar bo'yicha bilimlari hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi.

Yig'ilgan ballarga ko'ra tanlovda 1-o'rinni Ammiak-3 sexidan Sodiqlon Qodirov, 2-o'rinni Mochevina ishlab chiqarish sexidan Muxlisaxon Ikromaliyeva hamda 3-o'rinni DSD sexidan Maxsunaxon Tojiboyevlar egalladilar. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlandilar. Tanlovda qatnashgan boshqa xodimlarga esa korxona Yoshlar ittifoqi Kengashi tomonidan faol ishtiroki uchun faxriy yoriqlar va aqilli soatlar in'om etildi.

O'z muxbirimiz.



“ONALARGA EHTIROM” FESTIVALI DOIRASIDAGI KO‘RIK-TANLOV

Hayotimizda eng qadrlri, e'zoz shaxs – ona albatta. Ularni mehr kuchlari haqida afsonalar yuradi xatto. Har bir inson, hoh yosh, hoh qari bo'lsin onalar uchun doimo jajji, erkato'y farzand bo'lib qoladi. Shunday ekan, ularni ehtirom qilish bizlar uchun g'urur va faxrdir.

Viloyatimizning barcha yerlarida o'tkazib kelinayotgan "Onalarga ehtirom" festivali doirasida "Farg'onaazot" AJda ko'rik-tanlov o'tkazildi.

Tanlovda ishtirokchilar o'zlari tayyorlangan, onalarga bag'ishlangan videolavhalari, monolog va she'r-lari, shuningdek, raqslarni ijro etishdi. Namoyishlarga qarab qatnashuvchilar baholab borildi. Tanlov natijalariga ko'ra, korxonada 38 yil mobaynida halol mehnat qilganligi uchun Ta'mirlash – qurilish sexi xodimi Mohiraxon Asqarova I darajali, "Yurt iftig'orlari" nominatsiyasi bo'yicha

Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobchisi Gulnoza Abdurahmonova II darajali va "Vatan fidoyisi onasi" nominatsiyasi bo'yicha Mexanika ta'mirlash sexi xodimi Umidaxon Usmanova III – darajali diplom va esdalik sovg'a bilan taqdirlandilar. Shuningdek, monologda onaga bildirilgan eng go'zal dil izhori uchun Aloqa sexi xodimi Muhammadshukur Xamidjonov, "Eng yaxshi tadbirkor onasi" mavzusida tayyorlangan videolavhasi uchun Ijtimoiy rivojlanish va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi yetakchi mutaxassisi Bashorabxon Djalilova, "Eng ibratli mehnatkash ona" nominatsiyasida



Karbamid sexi ishchisi Mohira Qurbonova, "Eng yaxshi mutaxassislarni tarbiyalagan ona" nominatsiyasida Aloqa sexi xodimi Hursanoy Qodirova va AS-72M sexi xodimi Zulfiya Ibragimova, "Eng namunali ona" nominatsiyasida uzoq yillar davomida AK-72 M sexida laborant lavozimida ishlab kelayotgan hamda uch farzandning onasi Xolixon Ibragimovalar faxriy yoriqlar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar. Ko'rik – tanlov yakunida jamiyat kasaba qo'mitasi raisi Ilhom Abduvohidov so'zga chiqdi va mazkur so'zlarni aytib o'tdi: — Onalarni, ayol zotini e'zozlash yurtimizda azal-azaldan ezuq qadriyat

bo'lib kelgan. Ushbu tadbirni o'tkazishdan maqsad ham dunyo beshigini tebratuvchi, oqila onajonlarimizga bo'lgan mehr-muhabbatni namoyon etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi shuurida ota-onaga hurmat, farzandlik burchlarini ado etish, ularni qadrlash kabi fazilatlarini shakllantirishga ko'maklashishdan iboratdir. Qolaversa, ushbu tadbir 15-may — Xalqaro oila kunida o'tkazilayotgani ham ramziy ma'no kasb etadi, zero ota-ona oilamiz ustuni.

O'z muxbirimiz.

BARCHA KORXONAMIZ ISHCHI-XODIMLARI DIQQATIGA!

Jamiyatimizda 2023-yilning oktabr oyida — "Kitobxon xodim" ko'rik-tanlovi o'tkazilishini e'lon qilamiz!

Tanlov 3 bosqichda, ya'ni, "O'zbek adabiyoti bilimdoni", "Jahon adabiyoti bilimdoni" va "Men sevib o'qigan asar" bosqichlarida o'tkaziladi. Yosh chegaralanmagan. Xodimlar millati, lavozimi va jinsidan qat'iy nazar ishtirok etishlari mumkin. Tanlov o'zbek tilida o'tkaziladi.

"O'zbek tili bayrami kuni" arafasida o'tkaziladigan tanlovda g'oliblar quyidagi tartibda taqdirlanadi:

- 1-o'rin — 8 million so'm va kitoblar to'plami;
- 2-o'rin — 5 million so'm va kitoblar to'plami;
- 3-o'rin — 3 million so'm va kitoblar to'plami bilan.

"Kitobxon xodim" ko'rik-tanlovda ishtirok etish istagidagi xodimlar o'z ma'lumotlarini korxona boshqaruvi raisi maslahatchisi E.M. Abdullayevaga taqdim etishlari so'raladi. Eslatib o'tamiz, mazkur ko'rik-tanlov buyrug'i, nizomi va kitoblar ro'yxati jamiyatimizning barcha sex va boshqarmalariga tarqatib berilgan!

Qo'shimcha murojaatlar uchun quyidagi telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin: 67-40, (90) 303-17-71

"KITOBXON XODIM - 2023" TANLOVIDA ISHTIROK ETISH UCHUN O'QISH LOZIM BO'LGAN KITOBLAR RO'YXATI

1. "Kuntug'mish" - Xalq dostoni
2. "Jaloliddin Manguberdi" - Maqsud Shayxzoda
3. "Oltin zanglamas" - Shuhrat
4. "Falak" qissasi - Tohir Malik
5. "Tug'li ko'zlar" - Xudoyberdi To'xtaboyev
6. "Ulug'bek xazinasi" - Odil Yoqubov
7. "Qil ko'prik" - Shukur Xolmirzayev
8. "Ot kishnagan oqshom" - Tog'ay Murod
9. "Ona lochin vidosi" - Primqul Qodirov
10. "Qo'rqma" - Javlon Jovliyev
11. "Turkiy guliston yohud axloq" - Abdulla Avloniy
12. "Temur Malik" - Mirmushin
13. "Bozor" - Xurshid Do'stmuhammad
14. "Jannatga yo'l" - Abdulla Oripov
15. "It'yurak" qissasi - Mixayl Bulgakov
16. "Oq so'yloq" - Jek london
17. "Farg'ona kelini" - Jorjoy Zaydon
18. "Amerika fojiasi" - Teador Drayzer
19. "Kafansiz ko'milganlar" - Shukrullo
20. "Amur Temur" - Marsel Brion.

jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'lum miqdordagi majburiyatlar mundarajasini o'z zimmasiga oladi.

Har bir ishchi- xizmatchi uchun ish mutaxassisligi va malakasiga qarab ma'lum mashina, stanok va boshqalardan iborat ish joyi tashkil qilish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini tashkil qilish, sifatli ish qurollari bilan ta'minlash, sanoat va mehnat intizomini har tarafama mustahkamlash, ish sharoitini kundan-kunga yaxshilab borishni ta'minlashga qaratilgan texnik jihozlar o'rnatish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish. Bundan tashqari rahbar xodimlarga xizmat vazifalari ham yuklanadi.

Hozirgi tezkor zamon fan va texnikasining rivojlanishi yangidan-yangi texnologiya va mashina-mexanizmlarining ishlab chiqarishga joriy etilishini, ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimning yuqori malakasi, texnika xavfsizligi to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarini tushunadigan va unga amal qiladigan bo'lishlarini talab qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslar bazasini zamon talabiga keltirish maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining yangi tahriri Oliy Majlisda muhokamadan o'tishi va Mehnat Kodeksiga o'zgartirishlar

xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari kodeksiga yozib qo'yilgan. Ma'muriyat tarkibiga rahbar xodimlar, ya'ni sanoat korxonalarida, tashkilotlarida tashkilotchilik, ma'muriy-jo'xalik ishlarini amalga oshiruvchi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qiluvchi, ishlab

MEHNAT MUHOFAZASI – KELAJAK MUHOFAZASI

kiritilishi bu sohada katta ahamiyatga egadir.

"Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilish haqida"gi 2016-yil 22-sentabrda Qonunda xodimning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatlarini keltirilgan bo'lib, unda ish beruvchining mablag'lari hisobidan mehnatning xavfsiz uslublari va usullari bo'yicha o'qish, mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida ish o'rni tugatilgan taqdirda ish beruvchining mablag'lari hisobidan qayta tayyorgarlikdan o'tish kabi huquqlari hamda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi, shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri qo'llashi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar olishi, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan va malaka oshirishdan o'tishi kabi majburiyatlari belgilab berilgan.

Sanoat korxonalarida, tashkilotlarida

chiqarishda mehnat qilayotgan kishilarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimot bilan ishlatish va uni nazorat qilish ishlarini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat xodimlariga qo'yiladigan asosiy talab, ular davlat siyosatini yaxshi tushunishlari va uni amalga oshirishga harakat qilishlari, davlat va xalq manfaatlarini tushunib, mehnat sharoiti tartibini saqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlashini va ishga rag'batlantirish, ish unumini oshirish darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishlari kerak.

Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar asosan ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidan kelib chiqadi. Bu mehnat bitimini tuzish majburiyatini O'zbekiston Respublikasining mehnat Qonuni bilan belgilangan. Bu qonuniyat sifatida quyidagicha talqin qilinadi. Ishchi ma'lum mutaxassslik bo'yicha belgilangan ishini korxona ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan holda bajarishi, ma'muriyat esa mehnat qilish qonuniyatlariga asosan va

Bu vazifalar boshqarishi lozim bo'lgan lavozimi taqozo qiladigan tavsiyanomada belgilangan bo'ladi.

Ushbu talablarga javob berish uchun barcha rahbar xodimlar, mutaxassislar va har bir ishchi-xodimlar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarini bilishlari zarur.

Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi Instituti hamda Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari professor-o'qituvchilari tomonidan mahalliy ijroiya hokimiyat organlari, tashkilotlar va muassasalar, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari rahbarlari va mutaxassislarini tizimli ravishda tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Bu tayyorlash esa o'z navbatida mehnatni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga egadir.

Orunboy YULDASHEV,
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi FMI dotsenti.

TABIATNI ASRASHGA BARCHAMIZ MAS'ULMIZ!!!

Ekologik ta'lim–tarbiya, bu xalqimizning ezuq an'analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiatga, uning boyliklariga mehr-muhabbat uyg'otish, shuningdek, tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatishdan iboratdir.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda mutanosiblik tabiatdan foydalanishda insoniyat tabiat qonunlariga emas, aksincha, o'z manfaatlariga asoslanib faoliyat ko'rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, dunyoning turli mintaqalarida yuv toshqinlari, zilzilalar, o'rmon yong'inlari va boshqa shu kabi talofatlarning ro'y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham "aks ta'sir"ga duch kelmoqda. Bularning barchasi endilikda insonning o'ziga va uning sog'lom tabiiy muhitda yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiatda ro'y berayotgan noxush hodisalar oqibatlarini bartaraf etish, bunday holatlarning oldini olish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni nihoyatda katta.

Shu bois milliy ma'naviyatimizning salohiyatini aks ettiruvchi va ajralmas bir qismi bo'lmish tabiatni va uning sahovatini qadrlash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqimizdagi milliy madaniyat, bilim, an'ana, tajribalar va merosni bir tizimga keltirib, tahlil qilib, dolzarb ekologik muammolarni hal etishda foydalanish zarur. Bu esa, o'z navbatida kelajak avlodga obod Vatan, musaffo tabiat, noyob tabiiy boyliklarni aslikdek asrab meros qilib qoldirishdek ezuq ishda dasturlamal bo'lib xizmat qilishi, shubhasizdir. Shu ma'noda, milliy ma'naviyatimizning serqirra va teran ildizlariga tayangan holda mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqishda ekologik mafkura, ta'lim va tarbiya tizimini yaratish alohida o'rin tutishi lozim.

Zero, ekologik ta'lim-tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlari, an'analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiatga, uning boyliklariga

mehr-muhabbat uyg'otish, tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatishdan iborat.

Bugun o'tmishda tabiatga yetkazilgan zararni chuqur asoratlarini tugatishga, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat degan tushunchaning mag'zini, afsuski, barcha birdek anglab yetayotgani yo'q.

Ba'zan ko'cha-ko'ya to'planib qolgan chiqindi uyumlarini, turli xil qattiq va maishiy chiqindilarni oyq ostda ezib, bemalol ketayotgan kishilarni, suvni isrof qilayotganlarni, o'simlik va hayvonot olamiga zarar yetkazayotganlarni, xiyobon va ko'chalarni ifloslantirayotganlarni, xazon yoqayotganlarni ko'rib, buning bizga hech ham daxli yo'qdek e'tiborsiz o'tib ketaveramiz. Afsuski, bularning barchasi, oqibatda, o'z sog'ligimizga ziyon yetkazishini, umrimizni qisqartirayotganini ba'zida unutib qo'yamiz. Bunday noxush holatlarning asosiy sababi, ayrim yurtdoshlarimizning ekologik bilim va tarbiyaning past darajada ekanligidir.

Tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish tufayli atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning hajmi keskin ortib borayotgani insonning tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini kuchaytirmoqda. Fan-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi, aholi sonining keskin oshishi tabiiy zaxiralardan keng foydalangan holda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarishni talab etmoqda. Ma'lumki, so'nggi 50 yil ichida yer yuzi aholisi deyarli uch marotaba o'sgan, transport vositalari soni, elektr energiyadan, neft va gazdan foydalanish, yog'och iste'moli, qog'ozga bo'lgan talab bir necha barobar oshdi. Eng muhimi bu tendensiya hamon davom etmoqda. O'z navbatida tabiiy zaxiralardan foydalanishning keskin ortishi, insoniyatning tabiat qonuniyatlariga

bo'ysinmasdan unga ta'sir ko'rsatishi oqibatida ekologik muammolarning dolzarbligi yanada oshib bormoqda.

Bu sohada mavjud vazifalar ko'lamining kengligi va murakkabligi hamda miqyosi mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash muammolarini kompleks ravishda hal etishda nafaqat davlat organlarining, balki jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlarining say'-harakatlarini birlashtirishni talab etadi. Shu bois O'zbekistonda bu ishga keng jamoatchilikni jalb qilish, atrof muhitni muhofaza qilish davlat, jamiyat va har bir fuqaroning ishiga aylanishi yo'lida jiddiy qadamlar tashlanib, keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida keltirib o'tilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib bosh maqsadi ekologik muammolar va atrof-muhit muhofazasidagi loqaydliklarga barham berish, atrof-muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida, xususan, suv va atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilar muammolarini bartaraf etish, bioxilma-xillikni asrash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida jamoatchilik ishtiroki faolligini har tomonlama kuchaytirishdan iborat.

Atrof muhitni muhofaza qilish ekologik holatni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini saqlash masalalari bo'yicha ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlanirish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

Albatta amalga oshirilayotgan bunday ezuq ishlar zamidra yurtimiz tabiatini va tabiiy ne'matlarini asrab-avaylash, kelgusi avlod uchun musaffo osmon, tiniq suv, toza havo va obod Vatan qoldirish hissi muajassamlashgan. Shunday ekan tabiatni muhofaza qilishga barchamiz ma'sul ekanligimizni unutmasligimiz kerak!

S. TURG'UNOVA,
Farg'ona shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi davlat inspektori.



ОБЕСПЕЧЕНИЕ КАЧЕСТВЕННОЙ СВЯЗИ — НАША ГЛАВНАЯ ЗАДАЧА

Цех связи имеет такую же долгую историю, как и само предприятие. В 60-х годах прошлого века, когда была налажена первая телефонная связь на предприятии существовало всего 40 абонентских номеров. За свою долгую историю цех связи старался не отставать от веяний времени, так в 1982 году был введён в строй АТСК на 2000 телефонных номеров, а в 1984 году для обеспечения цехов II-промышленной площадки была дополнительно введена в строй телефонная станция на 400 абонентских номеров. Сегодня же этот цех обслуживает более 2600 телефонных номеров, 2400 телефонов оперативной диспетчерской связи. Кроме того, обеспечивает бесперебойную работу радио связи, отвечает за часофикацию. Во всех структурных подразделениях предприятия установлены более 1100 радиоточек, куда ежедневно с цеха связи осуществляется вещание с заводского радиоузла. Цех связи также обеспечивает бесперебойную работу громкоговорящей связи. В 2014 году была запущена локальная система оповещения для оповещения населения и сотрудников о чрезвычайных ситуациях.



Сегодня цехом связи руководит молодой, энергичный специалист Олег Владимирович Здобников. Под его началом работники цеха связи осуществляют монтажные работы по установке IP-телефонии, об особенностях новой системы телефонной связи мы сегодня просим рассказать начальника цеха.

— Олег Владимирович, расскажите пожалуйста коротко о том, что такое IP-телефония?

— Обычная телефонная связь осуществляется посредством телефонной станции. Голосовые сигналы направляются по телефонным линиям, через выделенное подключение. Функция телефонии в данном случае сводится лишь к обеспечению возможности разговора двух абонентов. При работе с виртуальной телефонией сжатые пакеты данных направляются в интернет, либо в локальную сеть с конкретным

адресом и передаются, основываясь на этом адресе. В этом случае применяется IP-адресация со всеми присущими ей свойствами. Система IP-телефонии использует метод сжатия голосовых пакетов и может целиком обрабатывать емкость линии.

Повсеместный доступ в интернет, характерный для нынешнего времени, позволяет сократить расходы на подключение, а то и вовсе обойтись без них.

Сервер находится на стороне оператора, что исключает необходимость самостоятельного технического обслуживания со стороны компании-клиента.

— Какие факторы обеспечивают высокое качество соединения в IP-телефонии?

Есть три основных фактора обеспечивающих высокое качество соединения — это, во-первых, то что телефонные серверы имеют свойство непрерывно совершенствоваться. Алгоритмы их работы все

меньше страдают от задержек и других недостатков IP-сетей.

Во-вторых, владельцы частных сетей полностью контролируют ситуацию и могут изменять технические параметры, которые позволяют сделать задержки совсем незначительными.

И в-третьих, каждый год появляются новые технологии и протоколы, позволяющие повысить качество связи.

— Есть ещё вот какой нюанс в обычных телефонах. Если сеть занята, то дозвониться вряд ли получится. Как решена эта проблема в IP-телефонии?

В случае если сеть показывает «Занято» — здесь на помощь приходят функции переадресации и переключения в режим ожидания, для использования которых нужно выполнить несложные действия в личном кабинете пользователя виртуальной АТС.

— Как решается вопрос с увеличением количества номеров?

С помощью IP телефонии можно масштабировать имеющуюся телефонную сеть на нашем предприятии. На сегодняшний день современные IT технологии позволяют с лёгкостью как увеличить количество линий, так и сократить путем элементарных настроек.

Подытоживая сегодняшнюю беседу с Олегом Владимировичем Здобниковым читатели нашей газеты, наверное, ещё раз убедились в том, что цифровизация сегодня проникает во все сферы жизни, информационно-коммуникационные технологии становятся драйверами экономики, хорошо понимая это цех связи старается идти в ногу со временем. Уже сегодня за счет внедрения IP-телефонии увеличилось количество абонентов до 200 номеров, а в дальнейшем его количество будет только расти.

Беседу провел
Отабек БЕГИДЖАНОВ.

В ТЕПЛИЦАХ СОБИРАЮТ УРОЖАЙ ОВОЩЕЙ

Как известно отдел по социальному развитию и работе с общественностью участвует в разработке прогноза по продовольственной программе. Также в целях обеспечения выполнения продовольственной программы на предприятии, контролирует работу цехов по своевременному предоставлению отчетов по выращиванию, сбору урожая сельскохозяйственных культур. В связи с вышеизказанным было решено совместно с работниками отдела по социальному развитию и работе с общественностью и пресс-службой предприятия посетить цеха I-промышленной площадки и ознакомиться с тем как обстоят дела в тепличных хозяйствах цехов.

В последних числах мая в наших краях во всю чувствуется дыхание лета. Именно в это время, когда весна уже отдаёт свои права лету, на прилегающих территориях цехов предприятия, можно воочию увидеть результаты работы по озеленению и благоустройству территорий. Кроме того, представляется возможным ознакомиться с работой в теплицах по получению раннего урожая овощей и зелени. Для освещения хода проводимых работ, в мае месяце побывали в теплицах цеха внутреннего водоснабжения, цеха ЦРО, АТЦ, РСЦ, цеха Электроснабжения, цеха Соды, РМЦ и цеха ХМД. В связи с тем, что все теплицы выше перечисленных цехов были разбиты на некогда пустовавших земельных участках цехов и условия в них практически одинаковы, была возможность сравнить, как организована работа в данных тепличных хозяйствах. Итак, первым делом ознакомились с проводимой работой в теплице цеха внутреннего водоснабжения. В этом цехе ответственным за теплицу и озеленение прилегающих территорий цеха назначен слесарь АБР Зокиржон Ахмедов. Он и показал нам теплицу и подробно рассказал о работах, проводимых по выращиванию этой культуры.

По словам Зокиржона Ахмедова в связи с тем, что прошлая зима выдалась аномально холодной, было решено заняться посевом семян огурцов в конце марта. Для посева был выбран скороспелый сорт «Орзу», который плодоносит в течение 45 дней. Кроме того этот сорт отличает большая урожайность, сейчас в теплице 500 саженцев огурцов которые уже начали плодоносить и давать урожай. К слову Зокиржон Ахмедов вот уже 8 лет в свободное от работы время ухаживает за тепличным хозяйством цеха. В теплице площадью 2,2 соток планирует получить до 1 тонны урожая огурцов.

Следующие теплицы, которую мы посетили, относятся к цеху ЦРО. В этом цехе ответственным за тепличное хозяйство является слесарь-ремонтник Хикмат Хайдаров. В его ведении находятся две теплицы, на котором с 300 саженцев уже получено 700 кг урожая огурцов.



В теплицах АТЦ на 3-х сотках были высажены в начале марта 450 саженцев помидоров и ещё на 3 сотках огурцы, за которыми осуществляют уход слесаря-ремонтники Шухратжон Зокиров и Икболжон Нуриддинов. Говоря об урожайности помидоров показывают созревшие плоды в каждом кусте которого имеется не менее 2 кг помидоров. Всего в этой теплице планируют получить до 1 тонны урожая огурцов и помидоров.

При посещении теплицы РСЦ выяснилось, что за теплицей осуществляет уход маляр цеха Максуджон Алиев. По его словам на 3 сотках в начале марта были высажены саженцы помидоров, которые уже дали завязи плодов. Здесь также планируют получить не менее 1 тонны урожая помидоров.

В теплицах цеха Электроснабжения, РМЦ, ХМД в отличие от вышеупомянутых цехов работа в теплицах была начата в конце января в начале февраля месяца. На вопрос о том, как им удалось сохранить саженцы в холода? Был получен ответ, что ими была проведена небольшая дополнительная работа по утеплению теплицы. Двухслойная укладка полиэтилена с воздушной прослойкой между ними позволила добиться так называемого эффекта термоса. Благодаря чему удалось держать внутри теплицы стабильную температуру и



сберечь саженцы.

В цехе электроснабжения и в цехе Соды имеются теплицы, с одинаковой площадью которые составляют по две сотки земли. В обеих теплицах были высажены по 450 саженцев помидоров голландского сорта. До сегодняшнего дня работникам цеха электроснабжения уже были розданы 75 кг помидоров, а работникам цеха соды были розданы более 30 кг помидоров. Осуществляющие уход за теплицами энергетик подстанции Анваржон Толибжонов и электромонтёр Умаржон Усмонов, а также аппаратчик цеха соды Ботирали Шерматов рассчитывают получить до 1 тонны урожая томатов. По их словам, урожайность с куста составляет в среднем 4,5 кг томатов.

В Ремонтно-механическом цехе и цехе ХМД имеются относительно большие теплицы в сравнении с другими цехами, поэтому количество высаженных тепличных культур в разы больше. Так к примеру, в теплице РМЦ с 750 принявшихся кустов в марте месяце уже был получен первый урожай в размере 80 кг которые были розданы работникам. По словам сопровождавшего нас ведущего специалиста РМЦ Тимура Назарова, в свободное от основной работы время за теплицей осуществляет уход машинист крана Мирзохид Юнусжонов. Говоря о планах на предстоящий уро-

жай работники РМЦ заверили что рассчитывают получить около 2,5-3 тонны урожая помидоров.

Возле теплицы цеха ХМД нас встретил начальник цеха Саидолим Сиддинов. Он и показал нам теплицу цеха и подробно рассказал о работах, проводимых в нём. На вопрос о том какова цель организации теплиц он сказал следующее:

— Целью организации теплиц на нашем предприятии было рациональное использование ресурсов в первую очередь пара, а также земель, не задействованных под промышленные нужды. Кроме того, продукция с теплиц стала существенным подспорьем в улучшении снабжения трудового коллектива свежими овощами и зеленью. Повышение плодородия почв в ответе на теплицы для теплиц земель имеет огромное значение в выращивании овощей, поэтому для того чтобы получать экологически чистую продукцию помимо минеральных удобрений используются органические удобрения. Главным преимуществом теплиц является то, что при надлежащем уходе в закрытом грунте можно получать урожай практически круглогодично.

— В нашем цехе ответственным за теплицу и озеленение прилегающих территорий является электромонтёр цеха Уткир Акрамов который имеет 15 летний опыт

работы на теплице. Он же покажет вам теплицу и расскажет о работах, проводимых, — добавил начальник цеха.

Показывая теплицу У. Акрамов рассказал нам следующее: «Под теплицу в нашем цехе отведено 5 соток земли. Для сохранения плодородия почвы, не используя много удобрений, необходимо чередовать высадку культур, учитывая правила севооборота. Растения одного вида потребляют полезные вещества из земли, обедняя почву. И перенасыщают ее определенными микроэлементами. Сменяя культуры с учетом потребностей каждого вида, можно добиться повышения урожайности. Поэтому в начале февраля были посажены 650 саженцев помидоров, 450 саженцев болгарского перца и 400 саженцев острого перца К сегодняшнему дню работникам цеха были розданы 120 кг помидоров, 2 тысячи штук болгарского перца и 3 тысячи штук острого перца.»

На вопрос, как вносятся минеральные удобрения, сказал нам следующее: «Минеральные удобрения действуют очень быстро. Но в теплице есть свои нормы внесения подкормки. Если переборщить с калием или бором в открытом грунте, то ничего страшного. Дожди и поливы быстро уберут излишек удобрений в нижние слои почвы. С парником (закрытом грунтом) так не получится. При избытке полезных элементов появляются признаки минерального отравления у культур. В этом случае мы замечаем появление некротических тканей. Каждая культура требует особого ухода, как вы убедились, саженцы перца принялись и развиваются у нас на славу, да и почва в теплице не имеет солевых отложений. После внесения аммофоса примерно через десять дней почва была удобрена мочевиной и органическим удобрением, поэтому она такая рыхлая!» добавил он.

— Уткиржон на какие ещё нюансы необходимо обращать в уходе за тепличными культурами?

— В каждом деле есть свои особенности, например, при выращивании помидоров в теплице как в нашем случае происходит зимой или ранней весной, когда невозможно естественная вентиляция и нет насекомых, для образования завязей приходится самостоятельно, искусственным способом опылять соцветия.

— Происходит ли обмен опытом с другими цехами?

— Мы не только обмениваемся опытом между собой, но и помогаем практически. В этом вы могли убедиться, при осмотре теплиц соседних цехов.

В заключении хотелось бы отметить, благодаря созданным на предприятии условиям, а также усердному труду работников цехов, обеспечивается выполнение продовольственной программы и социальная поддержка трудящихся.

Соб. корр.

10 ИНТЕРЕСНЫХ ФАКТОВ О ХИМИИ, КОТОРЫЕ ДОЛЖЕН ЗНАТЬ КАЖДЫЙ



У многих будние дни проходят практически однообразно: дом, работа, дом... И часто это вгоняет людей в депрессию, ибо не хватает какого-то разнообразия, событий, приключений, чего-то интересного! Но на самом деле, вокруг нас каждый день происходят миллионы событий и различных занятных явлений, на которые мы не обращаем внимания не только из-за того, что невнимательны, а потому что человеческий глаз этого просто не видит.

Например, вокруг нас постоянно проходят различные химические процессы. Это иллюзия, что химия — что-то сложное и непонятное. На самом деле, химия — это часть нашей жизни, без которой жизнь человека была бы не просто гораздо скучнее, а вообще невозможна.

Удивительные факты о химии:

- Мыльный пузырь — это самая тонкая материя, которую может увидеть человеческий глаз. Мыльный пузырь лопается за 0,001 секунды. При этом, если надуть пузырь в -15 °C, то он замерзнет при соприкосновении с поверхностью, а при -25 °C — замерзнет в воздухе и разобьется при ударе.
- В водах океана содержится золото. На одну тонну океанской воды приходится 7 миллиграммов золота.
- Во время полета самолеты используют до 75 тонн кислорода, такое количество кислорода вырабатывает 30000 гектаров леса.
- Железо можно превратить в газ при температуре 1539 °C.
- Каждый живой организм на нашей планете содержит в себе белок, но в разных соотношениях. Мозг человека — это тоже белок.
- Смертельная доза метилового спирта составляет 30 мл, при этом антидотом является этиловый спирт.
- Металл не пахнет. Всем знаком запах не обработанного (не крашеного) металла, так пахнут, например, металлические деньги, перила, старые качели, арматура или просто кусок металла. Но этот запах выделяет не сам металл, это результат соприкосновения металла с органическим веществом, к примеру, с нашей ладонью или пальцем, который выделяет пот.
- Помидоры — очень умные растения, они умеют кричать «SOS!». В момент, когда насекомое — например, гусеница — начинает грызть листочек помидора, он выделяет химическое вещество с определенным запахом, который привлекает птиц.
- Чарльз Гудьир — ученый, который совершенно случайно изобрел резину, которая не плавится в жару и не ломается в мороз. Он забыл убрать с включенной плиты смесь серы и каучука, так был изобретен процесс изготовления резины, который назвали вулканизацией.
- В головном мозге человека ежеминутно происходит около 100 тысяч химических реакций.

Химия, постоянно окружает нас. Она находится не только вокруг нас, но и внутри нашего организма, и даже наш мыслительный процесс, в сущности, химия. Так что химия помогает нам не только узнать много интересного и удивительного, но и приносит нам пользу во всех смыслах.

Материал перепечатан
с сайта 1prof.by



С ДНЁМ ХИМИКА, УВАЖАЕМЫЕ РАБОТНИКИ АО «FARG'ONAAZOT»

Уважаемые коллеги!
От имени руководства АО
«Farg'onaazot» и от себя лично по-
здравляю вас с профессиональным
праздником — Днём химика!

Сегодня невозможно представить современную жизнь без достижений химической промышленности. Химия востребована в различных сферах легкой и тяжелой промышленности, сельском хозяйстве, строительстве, пищевом производстве, медицине. От нашей с вами работы зависит благосостояние всего общества с продукцией химического производства тесно связана жизнь каждого человека, прогресс и полноценное развитие человечества в целом.

Наш славный коллектив благодаря своей самоотверженной работе и высокому качеству выпускаемой продукции, широко известен в Узбекистане и за её пределами. Минеральные удобрения выпускаемые нашим предприятием не изменно пользуются большим спросом у сельхоз производителей. В этот знаменательный день примите слова искренней благодарности за личный вклад каждого из вас в общее дело в развитие производства и расширения ассортимента выпускаемой продукции.

Желаем вам и вашим семьям крепкого здоровья,
благополучия, сил и смелости для новых
начинаний!

Председатель правления
АО «Farg'onaazot»
Д.Э. МАННОНОВ.

СЕМИНАР-ТРЕНИНГИ КАК ОДНА ИЗ ФОРМ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РАБОТНИКОВ

Профессиональные кадры — это основной ресурс любого предприятия, организации необходимый для ее развития. Как бы это странно ни звучало, но решают все не финансы, не технологии, не ресурсы, а люди. От профессиональных, личностных качеств человеческого капитала в конечном счете зависит процветание предприятия.



Кодекса. В ходе тренингов были рассмотрены вопросы применения статей трудового кодекса, касающиеся трудовых отношений в частности подробно были описаны случаи заключения и расторжения трудовых договоров, выхода различных категорий работников в трудовой отпуск и многих других вопросов по трудовому праву, которые нашли свое отражение в новом кодексе.

— Из каких разделов состоит новый Трудовой кодекс?

— Трудовой Кодекс состоит из 7 разделов. Таких как: Общие положения, социальное партнерство в сфере труда, трудоустройство, индивидуальные трудовые отношения, профессиональная подготовка, переподготовка и повышение квалификации работников, особенности правового регулирования труда отдельных категорий работников, защита трудовых прав работников. Рассмотрение трудовых споров.

— Скажите пожалуйста, в чем принципиальное отличие нового Трудового кодекса от действующего?

— Отличие Нового Трудового кодекса от старого Трудового кодекса в том, что в новом Трудовом кодексе более обширно рассмотрены нюансы возникающие в старом Трудовом кодексе. В старом Трудовом кодексе отпуска исчислялись в рабочих днях, в новом Трудовом кодексе отпуска исчисляются в календарных днях. Ранее предоставлялся основной трудовой отпуск-15 рабочих дней. Сегодня же предоставляется 21 календарный день.

В новом Трудовом кодексе есть статья, позволяющая работникам работать дистанционно. Так же появилось понятие «частично оплачиваемый отпуск».

— Как вы упоминали ранее, в ходе семинара отдельно были рассмотрены вопросы содержания трудового договора. Расскажите о них подробнее?

Да вы правы, в ходе семинара был подробно рассмотрен вопрос касающийся условий

трудового договора. Так новый Трудовой кодекс определяет основные права и обязанности его сторон. Также в нём более полно раскрыто содержание трудового договора, его необходимые и дополнительные условия. В частности, особо раскрываются следующие аспекты трудовых отношений, выделенные в отдельные статьи. В трудовой договор не должны включаться условия, ухудшающие положение работника по сравнению с трудовым законодательством и иными правовыми актами о труде. Нарушающие требования о запрещении дискриминации в сфере труда и занятости, требования о запрещении принудительного труда, обязывающие работника совершать незаконные действия или действия нарушающие права, создающие угрозу жизни и здоровью, порочащие честь, достоинство или деловую репутацию как самого работника, так и других лиц. Такие условия признаются недействительными. Но при этом хочу отметить: недействительность отдельных условий трудового договора не может быть основанием для признания недействительным трудового договора в целом.

— Рассматривались ли на семинаре случаи расторжения трудовых договоров?

— Да, на семинаре рассматривались разные случаи пре-

кращения трудовых договоров. Основания для прекращения трудового договора представлены в статье 155. Ряд изменений касается прекращения трудового договора по инициативе работника (собственное желание). Работник вправе прекратить трудовой договор, письменно предупредив об этом работодателя за 14 календарных дней. Установлены специальные сроки предупреждения для отдельных категорий работников. Обновлен перечень оснований прекращения трудового договора по инициативе работодателя. Предусмотрена возможность прекратить трудовой договор с работником по инициативе работодателя по несоответствию только вследствие его недостаточной квалификации. Случаи, когда работник в связи с ухудшением состояния здоровья в соответствии с медицинскими показаниями не может выполнять прежнюю работу, не отнесены к числу оснований прекращения трудового договора по инициативе работодателя.

— И в конце нашей беседы. Что дал семинар для вас и ваших работников?

— Прошедший семинар-тренинг позволил нам повысить свою квалификацию, полученные знания и опыт позволят нам применять его на практике.

Отбек БЕГИДЖАНОВ.

Администрация и коллектив АО «Farg'onaazot» выражают глубокое соболезнование руководителю пресс-службы Тилляходжаеву Маннонхону Маликовичу, и разделяют горечь утраты с родными и близкими в связи с безвременной кончиной отца

ТИЛЛЯХОДЖАЕВА Малика Султановича.

